



МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 1/3 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

ЖАСЛАР ХӘМ БИЗНЕСТИ
ҚОЛЛАП-КУЎАТЛАЙ ЖЫЛЫ

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

1/3-сан 2024

март

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ФЗПИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрула АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбай ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА

Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Воҳид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ


Султанов Б. Хуқық тараұының пидайысы 8

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Фуломова Н.Р. Саёхатнома – ТРЭВЕЛ журналистиканинг асоси сифатида	16
Choriyeva F.A., Raxmatova M.U. Xorijiy tillarni o'zlashtirishda aksiologik komponentning o'rni	24
Sobirova N. Z. Etimologik tahlilga oid tadqiqotlar va ularning mazmuni	28
Расулова Р. Адабий таълимда интегратив ёндашув	33
Gulyamova X., Abdurazakova N. Ona tili ta'limida gap bo'laklarini o'qitishga qo'yilgan talablar	37
Allayorov T.R. Ona tili darslarida ta'limiylar yinlarning ahamiyati	42
Турсынмуратов Ш.М. Проблемы перевода лирических текстов в каракалпакской литературе (на примере романа в стихах Т.Жумамуратова «Красавица Макарь» в русском переводе)	47
Кабулов С.Т., Сагындыков А.А., Якупова Д.М. Современные интерактивные методы как феномен формирования коммуникативной компетенции на занятиях по русскому языку как иностранному в каракалпакской школе	52
Айтматурова А. Лагерная тема в творчестве С. Довлатова «Зона. Записки надзирателя»	57
Таженова Г.Т. Лексическая компетенция как цель обучения иностранным языкам в школе	62
Jo'rayeva M. Yu., Bakhromova M. B., Mamadova Sh.F. Stages of developing fluency in a foreign language	67

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Bekbergenov A. A. Talabalarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik-aksiologik shart-sharoitlari	72
Pardayev X.O. Sinf soatlarida huquqbazarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash	79
Usmonova A.T. Umumta'lim maktablari imijini shakllantirishda o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash masalalari	84
Kodirov I.N. Korxonalar bilan o'zaro hamkorlikda muqobil energetik kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimining o'rni	89
Adashboyev Sh. "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" ochiq onlayn kursini loyihalash va mazmunini ishlab chiqish	97
Тилаев Э. Р. Олий таълим тизимида фаолият кўрсатаётган раҳбар кадрларда стратегик фикрлаш компетенцияларини шакллантиришининг асосий йўналишлари	106
Davronova D.S. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida oilada ma'naviy muhitni barqarorlashshtirish omillari	111
Po'latov Dj.A. Milliy o'zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta'minlash - shaxs ma'naviy barkamolligi mezonlari sifatida	117
Aslonova O.P. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish aspektlari	124
Mamatqulova O.X. Globallashuv sharoitida o'smir yoshdagisi o'quvchilarda milliy birliktuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlari	127
Jabborova M.K. Dastlabki chet tili ta'limida o'quvchilarda intelektual ijodiy yondashuvni shakllantirishning pedagogik modeli	132
Oripova N.X. Shaxs e'tiqodini shakllantirish borasidagi pedagogik tahlillarning mazmuni va mohiyati	137
Bobonazarova S., Ashurova S. O'qituvchi faoliyatini tashkil etishga innovatsion yondashuv	141
Astanov T.M. OTMlarda chizma geometriya fanini o'qitishning innovatsion usullari	146
Rashidova R., Po'latova F.R. Pedagogning sotsiolingvistik kompetensiyalari	151



ONA TILI TA`LIMIDA GAP BO`LAKLARINI O`QITISHGA QO`YILGAN TALABLAR


*Gulyamova X.
ChDPU dotsenti
Abdurazakova N.
NDPI stajyor - o'qituvchi*

Tayanch so`zlar: gap bo`laklari, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, tahliliy, tanqidiy, ijodiy yondashish, qiyoslab o`rgatish, til bo`limlarini bog`lab o`rgatish, maktub metodi.

Ключевые слова: фрагменты предложений, личностно-ориентированное обучение, аналитический, критический, творческий подход, сравнительное обучение, обучение путем соединения языковых разделов, буквенный метод.

Key words: sentence fragments, student-centered learning, analytical, critical, creative approach, comparative learning, learning by connecting language sections, letter method.

Bugungi kunda umumiy o`rta ta`lim maktablarida ona tili ta`limining sifati va samaradorligi ta`lim beruvchining metodik tayyorgarligiga, o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda sub`yekt - sub`yekt hamkorligiga asoslangan ta`lim jarayonini nazorat qilish va boshqarish strategiyalarining takomillashtirilishiga bog`liq. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida ona tili fanini o`qitishni rivojlantirish konsepsiyasining “Kadrlar bilan bog`liq muammolar”ida “Oliy ta`limdagi nomukammalliklar tufayli bitiruvchilarning nazariy tayyorgarlik hamda amaliy kompetentligi bog`lanishlarida bo`shliqlar yuzaga kelgan” ligining qayd etilishi bejiz emas. Hozirgi kunda bu masala ona tilini o`qitish metodikasining ham dolzarb muammolaridan biri bo`lib qolmoqda. So`nggi yillarda ta`limning barcha bosqichlarida ona tilini o`qitish orqali ta`lim oluvchilarning ijodiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurini yuksaltirish, o`zini-o`zi baholash qobiliyatini kamol toptirish, ijodiy faoliyatini to`g`ri yo`naltirishga xalqaro miqyosda alohida e`tibor qaratilmoqda. Ta`lim tizimining dunyo amaliyotida onatilio`qitishmetodikasini individuallashtirish vakompetentsiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya



texnologiyalarini joriy etishga ta’lim sifatini ta’minlashning yetakchi omili sifatida qaralmoqda. 5-11-sinflarning til ta’limida o‘quvchi shaxsini mustaqil hayotga tayyorlash, tanqidiy qarashlarni shakllantirish, shaxslik sifatlarini qoror toptirish, fan yuzasidan nazariy bilimlarini takomillashtirish, til birliklaridan maqsadiga muvofiq tarzda to‘laqonli foydalana oladigan darajaga olib chiqish kabi qator vazifalarni bajarish nazarda tutiladi. Mazkur vazifani bajarishda til ta’limini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida jahon amaliyotida yetakchi o‘rinda turishi bejiz emas. Shuning uchun ham pedagogika fanida ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Biroq uni har bir0 fanning o‘qitish metodikasiga, xususan, ona tili metodikasiga tatbiqan takomillashtirish til ta’limi oldida turgan muhim ilmiy-amaliy vazifalardandir.

Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida “o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish” kabi muhim vazifalar belgilanganligi bevosita oliy ta’lim tizimida ona tili o‘qitish metodikasiga ham taalluqlidir. Talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, ta’limda faolligi va mustaqilligini tarbiyalash o‘qitishning asosiy talabi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bo‘lg‘usi o‘qituvchini ham, maktab o‘quvchisini ham ta’lim jarayonida faollashtiradigan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish lozim.

Talabalarning ma’ruzaga ilmiy-nazariy va metodik jihatdan mustaqil tayyorlanishlari va ijodiy, tanqidiy yondashishlari uchun maxsus topshiriqlar tavsiya etiladi. Bu topshiriqlar darsdan tashqari vaqtida “Ta’lim tog‘risida”gi Qonunni, “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni, ona tili konsepsiyasini, ona tili dasturining bo‘limlari, mazmuni va talablarini, mavzu yuzasidan metodik adabiyotlarda berilgan ma’lumotlarni, tavsiyalarini, mavzu yuzasidan metodik adabiyotlardagi qarashlarni o‘rganish va munosabat bildirish; dars jarayonida esa muayyan mavzuni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsadni, o‘ziga xos tamoyillarini aniqlash, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatini ochish, tavsiya etilgan o‘qitish metodlari, usullar va vositalariga munosabat bildirish kabilar tashkil etadi. Jumladan, maktabda “Sintaksis nima maqsadda o‘qitiladi?” savoli asosida talabalar mavzuni o‘rganishga jalb qilinadi. Bu bilan maktabda o‘rgatiladigan mavzuning ta’limiy ahamiyati aniqlashtiriladi.

Muayyan mavzuni o‘rganish yuzasidan ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlardagi qarashlarga munosabat bildirishga undovchi topshiriqlar ularni

ijodiy ishga yo'llaydi, yangicha metodik yondashuvni yuzaga chiqishiga olib keladi. Masalan, “Metodik adabiyotlarda morfemika va morfologiyaning o'rganish ob'ekti yuzasidan bildirilgan fikrlarni aniqlang va ularga munosabatingizni bildiring. Ularning o'zaro alodorligini asoslang” kabi.

Talabalarni ona tili atamalarining ma'nosi ustida ishlashga jalg qilish mактабга о'quvchilarни tilga qiziqtirishга asos bo'ladi. Ma'lumki, ona til atamalarining ko'pgina qismi xalq tilidan olingan. Masalan, oliv ta'limda talabalardan “fe'l” so'zi qatnashgan ibora va birikmalarни keltirishlari va ularning ma'nolari asosida “Fe'l – arabcha harakat, ta'sir ko'rsatish, ish, amal; kishi xarakterini tashkil etuvchi ruhiy xususiyatlar va undan yuzaga keluvchi xatti-harakatlar majmui” sifatida izohlanadi.

Talabalarni til bo'limlarini o'zaro bog'lab, qiyoslab o'rgatishga yo'naltirish ijodiy metodik yondashuv ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Ona tilini o'qitishda talabalarni so'z turkumlarining grammatic ma'nodoshligini taqqoslab o'rgatish yuzasidan ilmiy-metodik izlanishga undash ularni o'quvchilarning umumlashtirish va xususiylashtirish ko'nikmalarini aspectual tamoyil asosida shakllantirishga qaratilgan metodik jarayonga tayyorlaydi. Ko'rindiki, ona tili ta'limida shaxsga yo'naltirilgan maxsus topshiriqlar ustida ishlash jarayonida til hodisalarining omonimlik, sinonimlik xususiyatlariga asoslanish, mustaqil so'z turkumlari bilan yordamchi so'z turkumlarining grammatic ma'noshdoshligi ustida ishlashga o'rgatish nutqiy faoliyatda takrordan saqlaydi.

Bo'lajak o'qituvchi ona tilidan o'quvchilarga o'rgatiladigan mavzularning nazariy ma'lumotlariga asoslangan holda metodik ishlarini rejalashtira olishi lozim. Buning uchun avvalo talabalar e'tibori tilshunoslarlarning gap bo'laklarining ilmiy-nazariy talqiniga tortilishi lozim. Masalan:

A.G'ulomov va M.Asqarovarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida gap bo'laklariga quyidagicha ta'rif beriladi: “Gapda tobelanib bog'lanishli va ma'lum so'roqqa javob bo'lувчи so'z yoki so'zlar birikmasi gap bo'lagi deyiladi. Ular gap bo'laklariga “gapning bo'laklari ma'lum grammatic munosabat bilan hosil bo'lган butunlikning bo'laklaridir”. N. Mahmudov, A. Nurmonovlar esa “Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi“ deb izohlaydi. Aslida bu ikki ta'rif bir xil qarashning ikki xil shaklidir. Gap bo'laklarini o'rgatish metodikasi bilan tanishtirishda talabalarga mazkur ikki ta'rifga bo'lган munosabatlari aniqlanadi. Talabalar quyidagi savol va topshiriqlar asosida munozaraga tortiladi:

- Siz bu fikrlarni qanday talqin qilgan bo'lardingiz?
- Hozirgi tilshunoslikda yana qanday qarashlar mavjud?



- Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar - gap bo`laklari: ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol ekani; sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar: undalma, kirish, kiritmalar ekani qayd etiladi. Mazkur tasnifni nazariy jihatdan asoslab bering.
- Ega ikki sostavli gapning bosh bo`laklaridan biridir, u hokim sostavning grammatic markazi, shu sostavdagi bo`laklarga, shuningdek, tobe sostavdagi bosh bo`lakka – kesimga ham hokimdir. Gapning grammatic va mazmuniy markazi egadir, kesim ham unga tobelanadi.
- Gapning bosh bo`laklarining tasnifiga munosabat bildiring. 1. Ega gapda absolut hokim bo`lak. 2. Kesim gapda absolut hokim bo`lak. 3. Gapda ega ham, kesim ham birdek muhim. Ularni ajratgan holda mavqeini oshirish va kamaytirish mumkin emas. 4. Kesim - gapni markazlashtiruvchi bo`lak. 5. Hukm nima haqida bo`ladi? Narsa va hodisalar bo`lmasa, u haqida hukmning bo`lishi mumkinmi?

Talaba bu muammoli savollarning javobini aniqlashtirib olishi va unga asoslanishi uchun tilshunoslarning qarashlari va tavsiyalari bilan birga ona tili darsliklaridagi ma`lumotlarni qiyoslashi lozim.

Gap bo`laklari yuzasidan nazariy ma`lumotlarni o`rganilgach, mazkur mavzu yuzasidan ona tili dasturi va darsligida berilgan ma`lumotlar bilan tanishish tavsiya qilinadi: - MO`Dida gap bo`laklarini o`rgatish mazmuni va izchilligini belgilab chiqing.

Shundan so`ng metodist olimlarning gap bo`laklarini o`rgatish bo`yicha metodik yonashuvlari va tavsiyalari bilan tanishtirish lozim.

Asqar G`ulomov: “O`quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrleshga o`rgatish, ular ongida ma`naviy-ma`rifiy inqilob qilishga intilish lozim. Zotan, chinakam mustaqil, ijodiy tafakkurni grammaticasiz, faqat so`z yoki iboralarni yodlatish, matn o`qitish orqaligina shakllantirishning aslo imkoniy yo`q” degan fikrni bildiradi.

Mavjud fikrga talabalarning munosabati aniqlanadi.

Ma`lumki, metodik qo`llanmalarda, maqolalarda oquvchilarning og`zaki va yozma nutqiy malakalarini rivojlantirishda gap bo`laklarini o`qitish masalasiga alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, gapning bosh bo`laklari – ega va kesim munosabatini, ikkinchi darajali bo`laklarni o`rganishda “Tadqiqot” metodi talabalarni mustaqil fikrleshga va ijodiy yondashishga undaydi.

Tadqiqot metodida bo`lajak o`qituvchilarga o`rganilayotgan mavzu yuzasidan nazariy ma`lumotlarni o`rganish barobarida ularga munosabatini bildirish, uning amaliy ahamiyatini aniqlash, shunga mos o`rgatish usullarini

tanlash vazifa qilib beriladi. Masalan: 1. “So`z turkumlarini bilmagan o`quvchi gap bo`laklarini o`zlashtira olmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga so`z turkumlari bilan gap bo`laklari orasidagi bog`lanishni tushuntirish lozim” degan fikrga asoslanib, bu jarayonni yoriting.

2. Gap bo`laklarini o`rgatishda ta`lim samaradorligini oshiradigan interfaol metodlarni (o`zaro va faol ma`nosini bildiradi) tanlang, gap bo`laklarini o`rgatish jarayoniga tatbiq eting.

O`qituvchi “Maktub” metodida gap bo`laklarini o`rgatish metodikasiga doir ma`lumotlarni talabalarga tarqatishi, ularni kursdoshlariga tushuntirishlarini topshiriq qilib berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta`limda talabalarni mакtab amaliyotiga tayyorlashdamavzuyuzasidannazariyvametodikadabiyotlardagima`lumotlarga ijodiy munosabatni shakllantirish ona tili o`qitish samaradorligini ta`minlaydi.‘

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўгрисида”ги PF – 60-сон Фармони.-Т.: 2022.
2. Umumiy o`rta ta`limning MO`D. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida ona tili fanini o`qitishni rivojlanirish konsepsiysi. –T.: 2020.
3. Fуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O_zbek tilining nazariy grammatikasi. – Т.: O_qituvchi, 1995.
5. G`ulomov A. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2002.
6. Toxliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova D. Ozbek tili o`qitish metodikasi. – T, 2006.
7. S. Matchonov va b. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. –T.: -Ishonchli hamkor. 2021.

РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada talabalarni maktabda gap bo`laklarini o`rgatish jarayoniga tayyorlashda ma`ruzaga doir ilmiy-nazariy ma`lumotlarga va metodik tavsiyalarga tahliliy, ijodiy va tanqidiy yondashishga o`rgatish xususida so`z yuritiladi.

РЕЗИОМЕ

В данной статье говорится об обучении учащихся аналитическому, творческому и критическому подходу к научно-теоретической информации и методическим рекомендациям в процессе обучения частям речи в школе.

SUMMARY

This article talks about teaching students an analytical, creative and critical approach to scientific and theoretical information and methodological recommendations in the process of teaching parts of speech at school.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

**«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИҮ»**

№ 1/3

Нөхис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 01.03.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №